

## KASB-HUNAR MAKTABLARIDA «INFORMATIKA VA AXBOROT TEHNOLOGIYALARI» FANINI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISH METODIKASI

*Tagayeva Barno Mamatkasimovna*

*Guliston tuman kasb hunar makdabida informatika o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kasb–hunar kollejlarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasini takomillashtirish va interfaol metodlarni qo'llash kabi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron adabiyotlar, virtual laboratoriya ishlari, Internet, “praks” – “harakat” va “logos”, o'rganish, esda saqlash, Kasb-hunar, informatika va axborot texnologiyalari.

### Kirish

Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarining iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan "Internet"ga kirib borishni kengaytirish, yuqori malakali dasturchilar tayyorlash darajasini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli natijalarga sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanishning ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligining oshishida qanday ro'l o'ynashiga bog'liq. Demak, zamonaviy kompyuterlardan amalda keng foydalana oladigan yetuk kadrlar tayyorlash kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

Xizmatlar sohasidagi axborotlarni qidirish va kerakli fayllarni qidirib topish va undan foydalanish, umumiy qidiruv tizimlaridan xizmatlar sohasidagi tegishli domenlar va ulardan foydalanish xamda turizm va mexmonxona xo'jaligi servisi tayyorlov yo'nalishida xizmatlar haqidagi saydlardan foydalanish va ulardan ma'lumotlar olish bo'yicha ma'lumotlar beriladi. Texnologiya va interfaol usullardan, shuningdek turli didaktik va texnik vositalar, multimedia vositalaridan foydalanishni oldindan texnologik kartalarda va ta'lim texnologiyalarini rejalashtirib qo'yish maqsadga muvofiqligidan mazkur mavzuning **dolzarbliligi** kelib chiqadi.

**Tadqiqot maqsadi:** Kasb–hunar kollejlarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Kasb-hunar kollejlarda “Informatika va axborot texnologiyalari” darslarida yangi innovasion texnologiyalaridan foydalangan holda kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish shu bilan birga Kasb-hunar

kollejlarda talabalarini kasbiy tayorgarligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Hozirgi davrda biror-bir sohada ish yuritish uni boshqarishni kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. XXI asr savodxon kishisi bo'lish uchun, avvalo, kompyuter savodxon bo'lish, axborot texnologiyalarini puxta egallamog'i lozim. Har bir mutaxassis, u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, o'z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyotini bilishi va ularda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Shu sababli bugungi kunda mustaqil Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub isloxoatlarning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olingan. Jumladan, «Kadrlar tayorlash milliy dasturi»da «Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarining zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish nazarda tutiladi» deb belgilab qo'yilgan.<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir"<sup>2</sup>, hamda Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz–Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir"<sup>3</sup> mavzularidagi ma'ruzalarida ham o'quv jarayoniga yangi axborot–kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat umummaktablari, kasb–hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustaxkamlash vazifalari qo'yilgan. Ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi qaralayotgan fanning o'qitish mazmunining o'quv maskanining asosiy maqsadlariga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Ta'limni kasbga yo'naltirilganligi pedagogik dasturiy vositalardan o'ziga xos ravishda shunday foydalanishdan iboratki, bunda bir tomonda o'quvchilarning dasturda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga imkon yaratilsa, ikkinchi tomondan, tegishli kasbga munosabatni, bo'lg'usi ishchi shaxsning kasbiy sifatlarini shakllantiradi. Hozirgi vaqtda yetarlicha

<sup>1</sup>A.A.Abdugodirov, R.R. Boqiev, M.E.Mamarajabov. Akademik litsey va Kasb-hunar kollejlarda "Informatika" fanidan takomillashtirilgan fan dasturi.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir" mavzusidagi ma'ruzasi.- "Xalq so'zi" ro'znomasi, 2010 yil 28 yanvar.

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" mavzusidagi ma'ruzasi.- "Xalq so'zi" ro'znomasi, 2010 yil 30 yanvar.

ko'p sondagi yangi axborot texnologiyalari vositalari ishlab chiqilgan va foydalanilmoqda. Ularning soni yil sayin o'zgarimoqda. Ular ro'yxatiga quyidagilarni kiritish mumkin: barcha sinf kompyuterlari, displey, printer, xotira, kompyuterga ovozni kiritish qurilmasi, skaner, klaviatura, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori, multimedia tizimlari, videomatn, telematn, TV-axborot, modem, kompyuter tarmoqlari, elektron aloqa, elektron konferentsiyalar, axborot qidiruv tizimlari, raqamli fotokameralar, ekspert o'qitish tizimlari, grafik axborotni chiqarish qurilmasi, gipermatnli tizimlar, televidenie, radio, telefon, faks, ovozli elektron aloqa, telekonferentsiyalar, elektron doska, Internetdagi dasturiy vositalar, avtomatlashtirilgan kutubxonalar, o'qitishga mo'ljallangan dasturiy vositalar, tahririy-nashriyot tizimlari, CD ROM, dasturiy majmualar(dasturlash tillari, translyatorlar), berilganlarni uzatish vositalari, radiostantsiya va boshqalar.

Yangi axborot texnologiyalari vositalari o'zining didaktik xususiyatlariga ko'ra o'qitish tizimining barcha komponentlariga: maqsad, mazmun, uslub va o'qitishning tashkiliy shakllariga faol ta'sir qiladi va pedagogikaning ancha murakkab hamda dolzarb masalasi bo'lgan shaxs kamoloti, uning intellektual, ijodiy potentsiali analitik va tanqidiy fikrlashi, bilimlarni egallashdagi mustaqilligi, axborotning turli manbalari bilan ishlashda mustaqillik taraqqiyoti masalasini qo'yish va hal etish imkonini beradi. Kasb-hunar kollejaridagi ta'lim jarayonini axborotlashtirish bo'yicha ishlar:

–o'quv jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan internet texnologiyalarining didaktik asoslarini aniqlash;

–masofaviy o'qitishning metodologiyasini rivojlantirish;

–pedagog kadrlarni tayyorlashda, ularning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida dars berish qobiliyatlarini oshirish;

–pedagogik ta'limning elektron o'quv-metodik majmuasini yaratish (elektron adabiyotlar, virtual laboratoriya ishlari) va bu bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirish;


– axborot texnologiyalari muhitida o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlanish;

– o'qitishning tashkiliy shakllari, metodlari, metodologiyasi, shaxsni rivojlantirishning yangi axborot tizimida takomillashtirishni talab etadi.

Pedagogik praksologiya (yunoncha “praks” – “harakat” va “logos” – ta'lim, ya'ni “amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot” ma'nosini anglatib, bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo'llash, muayyan samaraga erishish masalalari tushuniladi. Pedagogik innovatsiyaning modeli shartli ravishda “To'pla”, “Tanla”, “Qo'lla” dan iborat. (1- sxema)<sup>4</sup>

<sup>4</sup>Ta'limda innavasion texnologiyalar// Toshkent-2008y





Multimedia- o'zlashma qo'shma so'zlardan iborat bo'lib, (lotincha multum – o'zbek tilida ko'p, ancha ma'noni anglatadi), biror narsaning ko'pligini, ko'p qaytarilishini bildiradi hamda bir necha o'quv dasturlarni o'z ichiga olgan ta'limning shakl va vositasidir. Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, o'quvchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchilarni axborot texnologiyalarinimultimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.<sup>5</sup> Pedagogik texnologiyaning monitoringi(Pirovard natijasi) 1- bosqich o'rganish esda saqlash 2- bosqich tushunib yetish o'zlashtirganini isbotlash 3- bosqich tatbiq eta olish qonun –qoidani tanlash, qo'llash 4- bosqich tahlil eta bilish qiyoslash, xulosalash, o'zaro bog'lash 5- bosqich sintez axborotni ijodiy qayta ishlay olish 6- bosqich baho olish yangi bilimga o'tish O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga har bir masalaga ijodiy yondoshish, mashuliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, taxlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi mustaqil o'qishga, o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Kasb-hunar kollej o'quvchilari o'quv faoliyatini faollashtirishga ko'maklashuvchi o'yinlar quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim.

1. Har bir o'yin ishtirokchisining faolligi.
2. Har bir o'quvchi uchun didaktik o'yinning ochiqligi.
3. Muammolilik.
4. O'yinning qiziqarli va hissiy rang- barang bo'lishi.
5. O'yinning yakkama yakkaligi va jamoaviyligi.
6. Baxs va musobaqaviyligi.

7. Har bir o'yinchi uchun o'yinning natijaviy bo'lishi. «Informatika va axborot texnologiyalari»fanidan didaktik o'yinlarni tayyorlash va o'tkazishda: g'oya, tashkil etish, o'tkazish va tahlil qilish kabi bosqichlarni inobatga olish lozim.

1. Didaktik o'yinning g'oyasi. Didaktik o'yinning birinchi, og'ir va eng masuliyatli bosqichi hisoblanadi.Uning tarkibiy qismlariga:

- guruhni tanlash;
- dars mavzusini tanlash;

<sup>5</sup>Axborot texnologiyalari. Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik.-T.: "O'qituvchi", 2003.-152 b.

- dars turini tanlash;
  - vaqt chegaralarini aniqlash;
  - o'yining shakli va turini tanlash jarayonlari kiradi;
2. Didaktik o'yinlarni o'tkazishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:
- o'quvchilarning o'yin tarkibi, o'yinda ishlatiladigan tarkibiy material bilan tanishtirish;
  - o'yinning borishi va qoidalarini tushintirish, bunda o'qituvchi o'yin qoidalariga asosan o'quvchilarning xarakteriga, qoidalarning bajarilishiga e'tibor beradi;
  - o'yin harakatlarini ko'rsatish, bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga xattiharakatlarni to'g'ri bajarilishini namoyish etadi va bu bilan aks holda o'yin kerakli natijaga olib bormasligini isbotlaydi;
  - o'qituvchining o'yindagi rolini, uning o'yin ishtirokchisi, muxlis yoki hakam sifatida o'yinda qatnashishini aniqlash;

### XULOSA

Respublikamizning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy, marifiy hayotida yuz berayotgan islohotlar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi" hamda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun joriy etilgan ta'limning davlat standartlari, umumiy o'rta ta'limning yangi dasturlarining muvaffaqiyatli hal qilishi, tayyorlanayotgan yetuk mutaxassislarining sifatiga ham bog'liqdir. Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga "Informatika va AT" fanini kasbga yo'naltirgan holda o'qitish metodikasini pedagogika sohasiga tadbiiq qilish bo'yicha respublikamizda olib borilayotgan izlanishlar e'tiborga loyiq. Kundalik xabarlar yangiliklar bir necha soniya ichida butun dunyoga tarqaladi. Bu esa bugungi kun informatika va axborot texnologiyalarining xar bir sohasiga kirib borganligini ko'rsatadi. Predmetlararo bog'lanishning turlari shakllari va mazmunini namoyon qilish jarayonida o'quvchilarning boshqa fanlarni qanday qanday darajada o'zlashtirganligi aniqlanadi va o'rganilayotgan materiallarning mohiyatini to'la va chuqur anglab, tushunib etishni ta'minlaydi.

Olib borilgan ishlar kasb-hunar kollejlari informatika va AT fanini kasbga yo'naltirgan holda o'qitish metodikasi ochib berish va o'quv jarayoniga qo'llash borasida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: 1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish muammolariga bag'ishlangan pedagogik, psixologik, nazariy va ilmiy metodik 72 adabiyotlar, dissertasiyalar tahlil qilindi va nazariy jixatdan o'rganilib o'rganilayotgan mavzu dolzarbligini asoslandi. 2. Kasb elementlarini yaratishga imkon beradigan dasturiy vositalarni o'rgatish asnosida talabalar egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar aniqlandi. 3. Bugungi kunning talab va ehtiyojlari, zamonaviy axborot texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda bo'limlar mazmuni

takomillashtirildi. Darslarni o'yinli texnologiyalar va ularning elementlarini yaratishga imkon beradigan dasturiy vositalar kiritildi. 4. kasb-hunar kollejlarda informatika va AT fanini kasbga yo'naltirgan holda o'qitish bo'yicha bir qancha muammolar o'rganilib, ularni bartaraf qilish uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqildi. 5. Fanni o'qitish bo'yicha metodik ko'rsatmalar va ishlanmalar tayyorlandi. Shu mazmun asosida ma'ruza mashg'ulotlari ishlanmalari, laboratoriya mashg'ulotlari va ularni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatmalar hamda talabalar bilimni baholash uchun nazorat savollari, test topshiriqlari, mustaqil ish topshiriqlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi. 6. Pedagogik tajriba natijalari informatika va AT fanini kasbga yo'naltirgan holda o'qitish mazmuniga mos innovasion va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish orqali ta'lim samaradorligi va sifati oshishi statistik jihatdan asoslandi va qo'llanilgan metodik tizimning samarali va ishonchli ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, kasb-hunar kollejlarda informatika va AT fanini kasbga yo'naltirgan holda o'qitish mazmunini talabalarga o'rgatish kelajakda kasbiy faoliyatlarida ham keng foydalanish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1998.-686 b.
2. I.Karimov Barkamol avlod orzusi //Nashr uchun mas'ul: T.Risqiev. Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov.– T.: «Sharq» nashriyot–matbaa konserni, 1999. – 184 b.
3. I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlari, 3-jild.-T.: O'zbekiston, 1996.-367 b.
4. I.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. Asarlar, 5-jild.-T.: O'zbekiston, 1997.-360 b.
5. I.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // Barkamol avlod orzusi.-T.: Sharq, 1999.-8-30 b.
6. I.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.–T.:O'zbekiston, 1999. – 48 b.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi: XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O'zbekiston, 1999. – 37 b.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.: «Sharq» nashriyot– matbaa konserni, 1997. – B. 20–29.
9. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.: «Sharq» nashriyot– matbaa konserni, 1997. –B. 31–61.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” mavzusidagi ma'ruzi.- “Xalq so'zi”, 2010 yil 30 yanvar.